Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
Mo'minova Dilnavoz Komilovna	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
Odina Otajonova	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
Oromiddinov Sardorbek Botirovich	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
Qodirova Feruza Usmanovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
Sobirova Bonu Matkarimovna	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
Y. T. Umarova	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
Yakubova Manzura Abduraxmonovna	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
Yaxyayeva Umida Sharifovna	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
Sodiqov Murod Naimovich	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	

TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY JISMONIY TARBIYA METODLARINING SAMARADORLIGI

Tashpulatov Farxad Alisherovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish jarayonida zamonaviy jismoniy tarbiya metodlaridan foydalanishning samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsion texnologiyalar, interaktiv mashg'ulot shakllari hamda zamonaviy sport metodikalarining talabalarning jismoniy rivoji va harakat faolligiga ta'siri o'rganiladi. Olingan natijalar ushbu metodlarning jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish, mashg'ulotlarga qiziqishni kuchaytirish va umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishdagi afzalliklarini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, zamonaviy metodlar, jismoniy tarbiya, innovatsion texnologiyalar, talaba faolligi, sport mashg'ulotlari.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the effectiveness of modern physical education methods in improving students' physical preparedness. The study examines the impact of innovative technologies, interactive training formats, and contemporary sports techniques on students' physical development and levels of physical activity. The findings demonstrate that these methods contribute to the comprehensive development of physical abilities and enhance students' motivation to engage in regular physical training.

Key words: physical preparedness, modern methods, physical education, innovative technologies, student activity, sports training.

Аннотация: В статье проводится научный анализ эффективности использования современных методов физического воспитания в процессе повышения физической подготовленности студентов. Рассматривается влияние инновационных технологий, интерактивных форм занятий и современных спортивных методик на развитие физических качеств и уровень двигательной активности обучающихся. Результаты исследования подтверждают целесообразность применения данных методов для комплексного развития физических способностей и повышения мотивации студентов к занятиям физической культурой.

Ключевые слова: физическая подготовка, современные методы, физическое воспитание, инновационные технологии, активность студентов, спортивные тренировки.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy tayyorgarligini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish dolzarb pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyatning barcha sohalarida raqobatbardoshlik va faol hayot tarzi talablarining ortib borishi yoshlarning sog'lom, jismonan chiniqqan hamda harakat faoliyati rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlari ayrim hollarda talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va individual imkoniyatlariga yetarli darajada moslashmagan bo'lishi mumkin. Natijada o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion mashg'ulot shakllari, raqamli vositalar hamda sportning yangi yo'nalishlariga asoslangan metodlarni tatbiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Shuningdek, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlar o'rtasida harakat faolligini oshirish va jismoniy faollik darajasini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Talabalarning jismoniy tayyorgarligini ilmiy asoslangan, samarali va qiziqarli metodlar asosida rivojlantirish ularning nafaqat jismoniy holatiga, balki psixologik barqarorligiga, o'quv faoliyatidagi natijalariga hamda ijtimoiy faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillar ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida



nafaqat sog'liqni mustahkamlash, balki talabalarning umumiy va maxsus jismoniy sifatlarini samarali rivojlantirish, shuningdek, ularning harakat faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda jismoniy tarbiya sohasida innovatsion texnologiyalar, zamonaviy mashg'ulot metodlari, interaktiv yondashuvlar hamda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi mashg'ulotlar samaradorligini oshirish, talabalarning darslarga qiziqishini kuchaytirish va jismoniy tayyorgarlik darajasini yuksaltirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda.

Talabalarning jismoniy rivoji va sog'lig'i jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil bo'lib, ularni jismonan yetuk, chiniquqan va sog'lom etib tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu bois jismoniy tarbiya jarayoniga zamonaviy metodlarni joriy etish, ularning samaradorligini ilmiy asosda o'rganish va takomillashtirish bugungi kun talabiga aylangan. Mazkur maqolada zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining talabalarning jismoniy tayyorgarligiga ta'siri, ularning afzalliklari hamda amaliyotda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Talabalarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish ularning o'quv jarayonidagi faolligini oshirish, shaxsiy salomatlik madaniyatini shakllantirish va kelajakdagi kasbiy faoliyatida yuqori samaradorlikka erishishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Talabalarning jismoniy tayyorgarligini yuksaltirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlaridan, jumladan innovatsion texnologiyalar, interfaol mashg'ulot usullari, sog'lomlashtiruvchi texnikalar va raqamli monitoring vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganish hamda ularning natijadorligini amaliy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Maqolaning vazifalari:

1. Talabalarning jismoniy tayyorgarligi darajasini baholashda qo'llanilayotgan an'anaviy va zamonaviy metodlarni tahlil qilish.
2. Zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining nazariy asoslari va amaliy qo'llanilish xususiyatlarini o'rganish.
3. Raqamli texnologiyalar, fitnes-trening, funksional mashg'ulotlar va interfaol metodlarning ta'lim jarayoniga ta'sirini aniqlash.
4. Talabalarning jismoniy rivojlanishi va sport ko'rsatkichlariga zamonaviy metodlarning ta'sirini tajriba asosida tahlil qilish.
5. Ta'lim jarayoniga zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarini samarali integratsiya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.
6. Olingan natijalar asosida talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan takomillashtirilgan metodik yondashuvni ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlaridan foydalanish masalasi ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, yengil atletika, yugurish va sakrash turlarida mashg'ulot jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Soliyev I. R. va hammualliflar o'rta masofaga yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash texnologiyalarini tahlil qilib, mashg'ulot yuklamalarini ilmiy asosda rejalashtirish sport natijalarining oshishiga xizmat qilishini asoslab berganlar. Xuddi shuningdek, Ziyayev F. C. hamda Xo'jamkeldiyev G. S. tadqiqotlarida an'anaviy metodlar bilan solishtirganda zamonaviy va interfaol mashg'ulot shakllarining samaradorligi yuqori ekani qayd etilgan.

Karimov F. M. va G'aniboyev I. D. tomonidan olib borilgan tadqiqotlar uzunlikka sakrovchilar tayyorgarligida funksional mashqlar, maxsus kuch va chidamlilik mashg'ulotlari muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Ularning ishlarida mashg'ulotlarni individuallashtirish, interfaol o'yinlar va raqamli monitoring vositalaridan foydalanish sportchilarning jismoniy ko'rsatkichlarini sezilarli yaxshilashga yordam berishi ta'kidlanadi. Xalqaro tadqiqotlarda (Platonov, World Athletics) esa zamonaviy sport metodikalarining kompleks yondashuvga asoslanishi jismoniy sifatlarni uyg'un rivojlantirishda asosiy omil sifatida e'tirof etiladi.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar zamonaviy jismoniy tarbiya metodlari talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita ekanini tasdiqlaydi hamda ushbu yondashuvlarni oliy ta'lim amaliyotiga keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks ilmiy-pedagogik metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayoni oliy ta'lim muassasasi talabalari ishtirokida o'tkazilgan pedagogik tajriba asosida tashkil etildi. Tadqiqot ishtirokchilari tasodifiy tanlash usuli orqali tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.



Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, jismoniy tayyorgarlikni baholash testlari hamda statistik tahlil usullari. Ilmiy manbalarni o'rganish jarayonida zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining nazariy asoslari, amaliy qo'llanilish xususiyatlari va ilg'or tajribalar tahlil qilindi. Pedagogik tajriba sakkiz haftalik mashg'ulotlar asosida olib borilib, tajriba guruhida funksional treninglar, interaktiv mashg'ulotlar, raqamli monitoring vositalari va o'yinlashtirish elementlari qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy mashg'ulotlar amalga oshirildi.

Talabalarning jismoniy tayyorgarligi 1000 va 1500 metrga yugurish, kuch, moslashuvchanlik, chidamlilik va tana massasi indeksi kabi ko'rsatkichlar orqali baholandi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, zamonaviy metodlarning samaradorligi an'anaviy yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu metodologiya tadqiqot natijalarining ishonchiligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi an'anaviy yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil jarayonida talabalarning tezlik, chidamlilik, kuch, moslashuvchanlik hamda umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tanlab olindi va tajriba boshida hamda yakunida baholandi. Pedagogik tajriba natijalarini tizimli tahlil qilish zamonaviy metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar jismoniy sifatlarining kompleks rivojlani-shiga, mashg'ulotlar samaradorligining oshishiga va talabalarning harakat faolligini faollashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini aniqlash imkonini berdi. Quyida keltirilgan 1-jadvalda an'anaviy va zamonaviy jismoniy tarbiya metodlari asosida olingan natijalar taqqoslanib, ularning o'zgarish dinamikasi foiz ko'rinishida aks ettirilgan.

1-jadval: Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy metodlarning samaradorligi bo'yicha jadval

No	Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichi	An'anaviy metodlar (tadqiqot boshida)	Zamonaviy metodlar (tadqiqot oxirida)	O'zgarish darajasi (%)	Izoh
1	100 metrga yugurish (soniya)	15,2 s	13,8 s	+9,2 %	Tezlik va portlovchi kuchning oshishi kuzatildi
2	1500 metrga yugurish (daq./son.)	6:32	6:01	+7,9 %	Yurak-qon tomir tizimi faoliyati samaradorligi yaxshilandi
3	Uzoqqa sakrash (sm)	225 sm	247 sm	+9,7 %	Sakrash kuchi va koordinatsiya rivojlandi
4	Kuch sinovi: turnikda tortilish (marta)	8 marta	12 marta	+33 %	Funksional mushak kuchi sezilarli darajada ortdi
5	Press mashqi (1 daqiqa, marta)	42	55	+23 %	Tananing barqarorligi va mushak chidamliligi kuchaydi
6	Chidamlilik (masofa, metr)	2400 m	2650 m	+10,4 %	Aerob imkoniyatlar samaradorligi oshdi
7	Moslashuvchanlik (Sit-and-Reach, sm)	14 sm	19 sm	+35 %	Mushak elastikligi va bo'g'imlar harakatchanligi yaxshilandi
8	Tana massasi indeksi (BMI)	24,8	23,6	4,8 % ijobiy o'zgarish	Tana tarkibining sog'lomlashuvi kuzatildi
9	Umumiy jismoniy tayyorgarlik indeksi (ball)	68 ball	82 ball	+20,5 %	Zamonaviy metodlar umumiy tayyorgarlik darajasini oshirdi

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, zamonaviy jismoniy tarbiya metodlaridan foydalanish talabalarning jismoniy tayyorgarligining barcha asosiy ko'rsatkichlarida barqaror va sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ta'minlagan. Tajriba guruhi mashg'ulotlar jarayonida muntazam ravishda funksional mashqlar, plyometrik mashg'ulotlar hamda zamonaviy o'quv dasturlarida qo'llaniladigan yuqori samarali intensiv mashqlarni bajargan. Natijada ularning jismoniy tayyorgarlik darajasi an'anaviy mashg'ulotlar asosida shug'ullangan nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo'lgani kuzatildi.

Xususan, tezkorlik ko'rsatkichlari (100 metrga yugurish) qariyb 9 % ga yaxshilangan bo'lib, bu plyometrik mashqlar va intervalli yugurish mashg'ulotlarining mushaklarning portlovchi kuchini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi. Umumiy chidamlilik ko'rsatkichlari (1500 metrga yugurish hamda Cooper testi) esa 8–10 % oraliq'ida o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Ushbu natijalar zamonaviy va funksional mashqlarning yurak-qon tomir tizimi faoliyatini an'anaviy bir xil mashqlarga nisbatan faolroq rag'batlantirishi bilan izohlanadi.

Kuch ko'rsatkichlarida ham sezilarli ijobiy dinamika qayd etildi: turnikda tortilish natijalari 33 % ga, press mashqlari bo'yicha ko'rsatkichlar esa 23 % ga oshdi. Tana vazniga asoslangan funksional mashg'ulotlar va kompleks kuch mashqlari mushak guruhlarining uyg'un rivojlanishiga xizmat qilgani kuzatildi.



Moslashuvchanlik ko'rsatkichlarining 35 % ga yaxshilanishi zamonaviy trening dasturlarida stretching, mobilizatsiya hamda mushak elastikligini oshirishga qaratilgan mashqlarning tizimli ravishda qo'llanilganidan dalolat beradi. Shuningdek, zamonaviy metodlar tana tarkibiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, tana massasi indeksining 4–5 % ga sog'lomlashuv yo'nalishida o'zgarishiga olib keldi. Bu holat yog' to'qimalari ulushining kamayishi va mushak massasining ortishi bilan tavsiflanadi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik indeksining 20 % dan ortiq oshishi amalga oshirilgan mashg'ulot dasturining yuqori samaradorligini ifodalovchi muhim integral ko'rsatkich sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jismoniy tarbiya metodlari talabalarining jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda an'anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo'lib, qisqa muddat ichida barqaror ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar kuch, chidamlilik, tezlik, moslashuvchanlik va umumiy funksional tayyorgarlikni kompleks rivojlantirishga xizmat qilib, talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi (2-jadval).

2-jadval: **Mashg'ulot metodlarining umumiy ta'sir samaradorligi**

No	Metod turi	Kuch ko'rsatkichi	Chidamlilik	Tezkorlik	Motivatsiya darajasi	Umumiy samaradorlik
1	An'anaviy metod	O'rtacha daraja	Nisbatan past daraja	O'rtacha daraja	Nisbatan past daraja	55 %
2	Funksional metod	Yuqori daraja	Yuqori daraja	Yuqori daraja	Yuqori daraja	85 %
3	Interaktiv metod	O'rtacha daraja	O'rtacha daraja	Yuqori daraja	Yuqori daraja	78 %
4	Raqamli texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlar	Yuqori daraja	O'rtacha daraja	Yuqori daraja	Juda yuqori daraja	88 %
5	O'yinlashtirish (gamifikatsiya) metodi	O'rtacha daraja	O'rtacha daraja	O'rtacha daraja	Juda yuqori daraja	80 %

- An'anaviy mashg'ulotlar metodikasi.** Ushbu metodika doirasida talaba mashg'ulot jarayonida mustaqil fikrlash, jamoada hamkorlikda ishlash va mashqlarni ongli ravishda bajarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Interaktiv yondashuv elementlaridan foydalanish mashg'ulotlarning qiziqarli va samarali tashkil etilishini ta'minlab, talabalarining o'quv jarayoniga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.
- Funksional trening (Functional Training).** Funksional mashqlar kundalik hayotdagi harakatlar modeliga yaqin bo'lib, asosiy va yordamchi mushak guruhlarining kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu trening turi talabalarda kuch, tezkorlik, muvozanat va chidamlilik sifatlarining uyg'un ravishda rivojlanishini ta'minlaydi.
- Raqamli texnologiyalardan foydalanish.** Mobil ilovalar, yurak urish tezligini o'lchovchi qurilmalar va video-yo'riqnomalardan foydalanish jismoniy faollikni aniq va tizimli nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa mashg'ulot jarayonini individuallashtirish hamda umumiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.
- O'yinlashtirish (Gamification) texnologiyasi.** Sport mashg'ulotlariga musobaqa, reyting va ball yig'ish elementlarining joriy etilishi talabalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi. Natijada mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish va ishtirok faolligi sezilarli darajada oshadi.
- Sog'lomlashtiruvchi aerobika va kardio dasturlari.** Muvofiqlashtirilgan aerobik va kardio mashqlar yurak-qon tomir tizimini mustahkamlashga, umumiy jismoniy chidamlilikni oshirishga hamda tana tarkibini sog'lomlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval: **Sakkiz haftalik mashg'ulotlar yakunida kuzatilgan jismoniy o'zgarishlar (o'rtacha ko'rsatkichlar)**

No	Ko'rsatkich	Dastlabki natija	Zamonaviy metodlardan so'ng	O'zgarish darajasi (%)
1	1000 metrga yugurish (vaqt, daq./son.)	5:20	4:40	+12 %
2	Bilak kuchi (kg)	32 kg	38 kg	+19 %
3	Vertikal sakrash (sm)	43 sm	51 sm	+18 %
4	Tana massasi indeksi (BMI)	24,5	23,1	6 % sog'lomlashuv
5	Yurak urish tezligi (yuklama ostida, zarba/min.)	168	154	8 % ijobiy moslashuv



Sakkiz haftalik zamonaviy sport metodikalaridan foydalanilgan mashg'ulotlar jarayonida ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarida barqaror va sezilarli ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Avvalo, chidamlilik ko'rsatkichlarida yaqqol o'sish kuzatilib, 1000 metrga yugurish natijasi dastlabki 5 daqiqa 20 soniyadan 4 daqiqa 40 soniyaga yaxshilandi, bu esa umumiy hisobda 12 % ijobiy o'zgarishni tashkil etdi.

Kuch ko'rsatkichlari ham ijobiy dinamikani namoyon etdi: bilak kuchi 32 kg dan 38 kg gacha oshib, 19 % lik o'sish qayd etildi. Portlovchi kuchni ifodalovchi vertikal sakrash natijasi esa 43 sm dan 51 sm gacha yaxshilaniib, 18 % lik o'sish bilan tavsiflandi. Ushbu natijalar zamonaviy mashg'ulot dasturlarida qo'llanilgan funksional va yuqori intensiv mashqlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tana tarkibida kuzatilgan o'zgarishlar ham ijobiy baholanadi. Xususan, tana massasi indeksi 24,5 ko'rsatkichidan 23,1 darajasiga tushib, 6 % sog'lomlashuv yo'nalishidagi o'zgarishni namoyon etdi. Shu bilan birga, mashg'ulotlar yurak-qon tomir tizimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, yuklama ostidagi yurak urish tezligi 168 zarba/minutdan 154 zarba/minutgacha pasaydi, bu esa organizmning yuklamaga moslashuv darajasi yaxshilanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, sakkiz haftalik zamonaviy metodika asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar ishtirokchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirdi. Chidamlilik, kuch, portlovchi kuch, tana massasi indeksi va yurak faoliyati kabi asosiy jismoniy ko'rsatkichlarning barchasida ijobiy dinamika kuzatildi. Olingan natijalar zamonaviy mashg'ulot uslublari qisqa muddat ichida ham yuqori samaradorlikka erishish imkonini berishini tasdiqlab, jismoniy rivojlanish jarayonini yanada optimallashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish jarayonida zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari innovatsion texnologiyalar, interaktiv mashg'ulotlar, funksional treninglar, raqamli monitoring vositalari hamda o'yinlashtirish (gamifikatsiya) elementlaridan foydalanilgan mashg'ulotlar talabalarning jismoniy tayyorgarligining barcha asosiy ko'rsatkichlarida barqaror va sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ta'minlashini ko'rsatdi.

Olingan natijalarga ko'ra, zamonaviy jismoniy tarbiya metodlari an'anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo'lib, talabalarda kuch, chidamlilik, tezlik va moslashuvchanlik sifatlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Jumladan, tezkorlik ko'rsatkichlari (100 metrga yugurish) qariyb 9 % ga yaxshilangan, 1500 metrga yugurish va Cooper testi bo'yicha chidamlilik ko'rsatkichlari 8–10 % oraliqida oshgan. Kuch ko'rsatkichlarida ham sezilarli o'sish qayd etilib, turnikda tortilish 33 % ga, press mashqlari esa 23 % ga yaxshilangan. Moslashuvchanlik ko'rsatkichlarining 35 % ga oshishi mushak elastikligi va bo'g'imlar harakatchanligining yaxshilanganidan dalolat beradi. Shuningdek, tana massasi indeksining 4–6 % sog'lomlashuv yo'nalishida o'zgarishi tana tarkibining optimallashtirishini ko'rsatadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik indeksining 20 % dan ortiq oshishi mashg'ulotlar dasturining yuqori samaradorligini tasdiqlovchi muhim integral ko'rsatkich hisoblanadi.

Bundan tashqari, zamonaviy metodlar talabalarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirib, ularni faol ishtirok etishga rag'batlantiradi hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar talabalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda, ularning umumiy salomatligi va psixologik barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Natijada oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya jarayonini yanada optimallashtirish va talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini izchil oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Soliyev I. R. va boshqalar. O'rta masofaga yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash texnologiyasi // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – № 2. – B. 100–109.
2. Xo'jamkeldiyev G. S. et al. Kichik razryadli o'rta masofalarga yuguruvchilarning musobaqa oldi tayyorgarligi // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – № 3. – B. 270–274.
3. Ziyayev F. C. et al. Yengil atletika sport turini rivojlantirishda umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya darslarida yengil atletika turlarini o'rgatish metodikasini takomillashtirish samaradorligi // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – № 3. – B. 348–355.
4. Ortiqov M. va boshqalar. Biatlonchilarni musobaqalarga tayyorlashda mashg'ulot yuklamalari vositalarini optimallashtirish // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – № 4. – B. 156–163.
5. Karimov F. M. va boshqalar. Boshlang'ich ixtisoslik guruhidagi uzunlikka sakrovchi qizlarning depsinish kuchini rivojlantirish // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – № 4. – B. 119–125.
6. Ziyayev F. C. et al. O'rta masofaga yuguruvchi yengil atletikachilarning musobaqa oldi tayyorgarligi samaradorligini oshirish // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – № 4. – B. 78–90.
7. Ch Z. F. Yengil atletikachilarning uzunlikka sakrovchanligini maxsus mashqlar yordamida rivojlantirish // PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 18. – № 1. – B. 183–185.



8. Karimov F. M. Uzunlikka sakrovchilarning chidamlilik sifatini rivojlantirish mezonlari // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – № 1 (Special). – B. 269–273.
9. Karimov F. M. Uzunlikka sakrovchilarning chidamlilik sifatini rivojlantirish mezonlari // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – № 1 (Special). – B. 269–273.
10. Ziyayev F. C. et al. Bosqon ulotiruvchi sportchilarni tayyorlashda modellashtirish orqali samaradorligini aniqlash // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – № 10. – B. 280–285.
11. Yusupov I. A. et al. O'zbekistonda yengil atletika bo'yicha yopiq inshootlarda o'tkazilgan 2021–2022-yillardagi O'zbekiston chempionati musobaqalarining tahlili // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – № 10. – B. 293–300.
12. G'aniboyev I. D. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida yengil atletika mashqlarini o'zida mujassamlashtirgan harakatli o'yinlardan foydalanish orqali bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – № 10. – B. 286–293.
13. Xo'jamkeldiyev G. S. et al. Aholi o'rtasida ommaviy yugurishning ahamiyati // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – № 10. – B. 120–125.
14. G'aniboyev I. D. et al. Uzunlikka sakrovchilarni tayyorlash samaradorligini oshirish // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – № 14. – B. 725–729.
15. G'aniboyev I. D. et al. Yosh yengil atletikachi sportchilarni uzunlikka sakrash turiga saralashda jismoniy sifatlarini rivojlantirish // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – № 14. – B. 736–741.
16. G'aniboyev I. D. et al. Qisqa masofaga yugurish texnikasini boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi sportchilariga o'rgatish samaradorligi // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – № 14. – B. 730–735.
17. G'aniboyev I. D. et al. G'ovlar osha yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – № 14. – B. 718–724.
18. Muxiddin o'g'li K. F. Modern methods of organizing track and long jumpers at the initial preparatory stage // Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – Vol. 2. – No. 3. – P. 34–38.
19. Karimov F. Boshlang'ich tayyorlov bosqichidagi uzunlikka sakrovchilarning yillik mashg'ulotlarini rejalashtirishdagi muammolar // News of the NUUZ. – 2024. – T. 1. – № 1.10. – B. 88–91.
20. Karimov F. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi uzunlikka sakrovchilarning interfaol o'yinlar orqali jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish // Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – № 12. – B. 638–642.
21. Karimov F. Uzunlikka sakrovchi sportchilarning anatomik-morfologik xususiyatlari // Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – № 12. – B. 632–637.
22. Karimov F. Problems in the organization of the training process, the use of tools and the planning of training of long jumpers in the initial training stage // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2024. – Vol. 5. – No. 08. – P. 141–147.
23. Karimov F. Boshlang'ich tayyorlov bosqichidagi uzunlikka sakrovchilarning yillik mashg'ulotlarini rejalashtirishdagi muammolar // News of the NUUZ. – 2024. – T. 1. – № 1.10. – B. 88–91.
24. Muxiddin o'g'li K. F. Modern methods of organizing track and long jumpers at the initial preparatory stage // Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – Vol. 2. – No. 3. – P. 34–38.
25. Karimov F. M. Uzunlikka sakrovchilarning chidamlilik sifatini rivojlantirish mezonlari // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – № 1 (Special). – B. 269–273.
26. Toshmatov I. Sportchilarni tayyorlash nazariyasi. – Toshkent, 2021.
27. IAAF Coaching Manual. – World Athletics, 2020.
28. Platonov V. N. Sistema podgotovki sportsmenov. – Moskva, 2015.
29. O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha metodik qo'llanmalar.
30. Alisherovich T. F. Pre-competition psychological preparation system for short-distance track and field athletes // Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2024. – Vol. 11. – No. 11. – P. 80–83.
31. Proximus Journal. PJSSPE // URL: <https://proximusjournal.com/index.php/PJSSPE/article/view/84>
32. Tashpulatov F. A. Development of sports activity in students, taking into account their individuality // International Scientific Journal: Learning and Teaching. – 2024. – Vol. 1. – No. 1. – P. 7–10.
33. Khamraeva Z. B., Tashpulatov F. A., Carmen P., Setiawan E. Elements of dynamics in gymnastic exercises // Revista Iberoamericana de Psicología del Ejercicio y el Deporte. – 2024. – Vol. 19. – No. 1. – P. 54–59.
34. Alisherovich T. F. Hygienic basics of physical exercise // World Scientific Research Journal. – 2024. – Vol. 23. – No. 2. – P. 67–74.
35. Alisherovich T. F. Osobennosti morfofunktsional'nogo sostoyaniya i fizicheskoy podgotovlennosti studentov spetsial'noy meditsinskoy gruppy // ISSN 2181-3523.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.